

# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra)

5



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

6

21  
aksiyadorlik  
jamiyati

112  
unitar  
korxona

335  
boshqalar

5 617  
oilaviy korxona

7 265  
xususiy korxona

12 712  
mas'uliyati cheklangan  
jamiyat

26 062  
tijorat korxonalarini

### Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar- iyun oylarida, birlikda)



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- iyun oylarida, birlikda)

7



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2022- yil yanvar- iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar- iyun oylarida 2 551 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 1 551 ta, oilaviy korxonalar - 567 ta, xususiy korxonalar - 275 ta, muassasalar - 82 ta va boshqalar - 76 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra 6 239 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 548 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 617 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 419 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 567 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 312 taga yoki 0,6 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, 13 434 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 252 taga yoki 20,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 712 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 972 taga yoki 18,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 551 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 173 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

9




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, 618 tani tashkil etib, ulardan 596 tasi yoki 96,4 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 204 taga yoki 20,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- iyun oylarida viloyatimizda 48 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati  
cheklangan jamiyatlar soni**  
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

11



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami</b>	<b>5 229</b>	<b>6 848</b>	<b>8 497</b>	<b>10 740</b>	<b>12 712</b>
<b>shu jumladan:</b>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	548	699	1 063	1 542	1 899
<b>Sanoat</b>	826	1 150	1 324	1 687	1 868
<b>Qurilish</b>	867	1 130	1 474	1 724	1 944
<b>Savdo</b>	1 552	2 091	2 624	3 404	4 200
<b>Tashish va saqlash</b>	510	563	612	629	663
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	195	269	332	394	486
<b>Axborot va aloqa</b>	71	94	105	135	156
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	60	83	96	143	184
<b>Boshqa turlar</b>	600	769	867	1 082	1 312

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

12



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	97	266	387	490	596
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23	74	97	111	125
Sanoat	38	71	105	126	133
Qurilish	4	14	21	38	40
Savdo	19	68	116	157	226
Tashish va saqlash	5	7	6	7	11
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	13	18	23	24
Axborot va aloqa	1	1	2	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	3	4	8	8
Boshqa turlar	5	15	18	19	27

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

13



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>596</b>	<b>151</b>	<b>445</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>343</b>	<b>37</b>	<b>306</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>6</b>	<b>5</b>	<b>1</b>
<b>Angor</b>	<b>21</b>	<b>6</b>	<b>15</b>
<b>Bandixon</b>	<b>3</b>	<b>1</b>	<b>2</b>
<b>Boysun</b>	<b>9</b>	<b>6</b>	<b>3</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>16</b>	<b>7</b>	<b>9</b>
<b>Denov</b>	<b>22</b>	<b>11</b>	<b>11</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>15</b>	<b>9</b>	<b>6</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>13</b>	<b>7</b>	<b>6</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>10</b>	<b>1</b>	<b>9</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>20</b>	<b>11</b>	<b>9</b>
<b>Termiz</b>	<b>48</b>	<b>16</b>	<b>32</b>
<b>Uzun</b>	<b>42</b>	<b>20</b>	<b>22</b>
<b>Sherobod</b>	<b>13</b>	<b>7</b>	<b>6</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>15</b>	<b>7</b>	<b>8</b>

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

15




2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,9 %), Denov (11,8 %), Jarqo'r-g'on (8,1 %), Sho'rchi (6,9 %), Qumqo'rg'on (6,7 %), Sherobod (6,5 %), Termiz (6,5 %), Uzun (5,3 %), Sariosiyo (5,2 %), Qiziriq (4,8 %), Boysun (4,8 %), Angor (4,7 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (2,2 %) tumanlarida hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar- iyun oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (16,2 %), Denov (11,7 %), Jarqo'rg'on (7,6 %), Sherobod (7,0 %), Boysun (6,6 %), Qumqo'rg'on (6,4 %), Sho'rchi (5,6 %), Angor (5,4 %), Muzrabot (5,3 %), Sariosiyo (5,2 %), Uzun (5,0 %), Oltinsoy (4,7 %), Bandixon (4,5 %), Qiziriq (4,4 %) va Termiz (4,4 %) ulushiga ega.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (25,8 %), Denov (9,8 %), Termiz (8,6 %), Jarqo'rg'on (7,3 %), Sherobod (6,4 %), Qumqo'rg'on (5,6 %), Sho'rchi (5,4 %), Boysun (5,1 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,4 %), Sariosyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,3 %) va Bandixon (2,2 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2022-yil yanvar- iyun oylarida, birlikda)



2022-yil yanvar- iyun oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Boysun (12,9 %), Oltinsoy (11,5 %), Denov (11,3 %), Termiz sh. (7,9 %), Qiziriq (7,2 %), Sherobod (6,3 %), Angor (5,3 %), Jarqo'rg'on (5,3 %), Bandixon (5,3 %), Uzun (4,9 %), Sariosiyo (4,8 %), Muzrabot (4,6 %), Sho'rchi (4,6 %) Termiz (4,6 %) va Qumqo'rg'on (3,5 %) tumanlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2022-yil yanvar- iyun oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the website [www.stat.uz](http://stat.uz). The header features the national emblem of Uzbekistan and the text "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the header is a navigation bar with links to "ASOSIY SAHIFA", "QO'MITA HAQIDA", "AXBOROT XIZMATI", "INTERAKTIV XIZMATLAR", "OCHIQ MA'LUMOTLAR", "MUROJAATLAR", and "KONTAKTLAR". On the right side, there are social media icons for Facebook, Twitter, and YouTube, along with links for "Qidirish" (Search) and "Shaxsiy kabinet" (Personal Cabinet).

The main content area is titled "RASMIY STATISTIKA" and contains a sidebar with various statistical reports like "Elon qilish taqvimi", "Metamolumotlar", etc. A dropdown menu under "Xizmatlar ro'yxati" is open, showing options such as "Eletron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Uslubiy materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti".

To the right, there is a section titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" listing useful documents like "Ahollini ro'yxatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", etc. At the bottom right, there is a note about using Microsoft Windows.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel. (76) 225-65-90**